

Date: 13thJanuary-2025

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA DUAL TA'LIM DAN
FOYDALANISHNING NAZARIY JIHATLARI**

Nosirova Robiyaxon Abdusamad qizi

Marg'ilon Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya. Kasbiy ta'lif jarayoni uzliksiz davom etuvchi, muntazam rivojlanib, raqamlar texnologiyalar integratsiyasi, ishlab chiqaruvchilar, mehnat bozori talablaridan kelib chiqib takomillashib boruvchi tizim bo'lib, u mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash funksiyasini bajarib kelmoqda. Ushbu maqolada dual ta'lif tushunchasi, mazmun mohiyati va professional ta'lif tizimida dual talimning tashkil etishning ahamiyati hamda xorijiy tajribadan samarali foydalanish bo'yicha so'z yuritildi.

Kalit so'zlar. Ta'lif, professional ta'lif, tajriba, rivojlanish, kasbiy ta'lif, kompetentlik, dual ta'lif, ishlab chiqarish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi VM 287-son qarori asosida mamlakatimizda kasb standartlarini joriy etilishi va ularning doimiy ravishda mehnat bozori talablari asosida takomillashtirib borilishi ta'lif sohasiga bo'lgan talablar ko'lmini kengaytiradi. Ya'ni bitiruvchi tayyorlashda uni o'zgaruvchan mehnat bozoriga tayyorlab borish, bitiruvchida o'zi tanlagan mutaxassislik doirasida kelajakda sodir bo'lishi kutilayotgan o'zgarishlarga hozirlanish sifatlarini rivojlantirishga ham e'tibor qaratish lozim. Bugungi kun bitiruvchisi kreativlik, ixtirochilik, yangilik yaratishga intiluvchanlik kabi shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi uning kelajak mehnat bozori talablariga javob bera olish jihatlarini ifodalaydi.[1]

Berilayotgan bilim shaxsning butun hayoti davomida dolzarbligini yo'qotmasligi kafolatlanganda edi, to'g'ri rejalshtirilgan ta'lif dasturlari asosida o'zgarmas algoritm asosida ta'lif jarayoni tashkillash bitiruvchi tayyorlashning asosi bo'lib qolaverar edi. Lekin mehnat bozori doimiy o'zgaruvchan jarayon va u kadrlardan o'zgaruvchanlikka raqobatbardoshlik sifatini taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida ta'lif mazmuni va jarayonini doimiy takomillashtirib borishni talab etadi. Bizning fikrimizcha bu borada ta'lif berishning quyidagi maqsadlarini takomillashtirish zarur.

✓ Ta'lif oluvchiga ma'lum doiradagi bilimning shu davrgacha shakllangan ierarxiyasining mazmuni va ahamiyatini yetkazish

✓ Ta'lif oluvchinini kelajakda kadr sifatida faoliyat olib borishida kutilayotgan mehnat bozori o'zgarishlari va yangiliklariga tayyorgarligini oshirish.

Bugungi kun ta'lif sohasida bu borada islohotlar mavjud. Raqamli texnologiyalar asosida bilimlar bazasini doimiy yangilab borish, bulutli hisoblash arxitekturasi asosida ta'lif boshqaruvi va monitoringini umumlashtirish va tizimlashtirish, ta'lifda mobil ilovalarga, dasturiy vositalarga murojaat

Date: 13thJanuary-2025

etilayotganligi ta'limning uzluksizlik tamoyili asosida olib borilayotganligini ta'kidlab o'tishimiz mumkin.[2]

Hozirda uzluksiz ta'lim tizimining bir bo'g'ini sifatida professional ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarda professional ta'lim, kasbiy kompetentliliklarini shakllantirish, professional ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish masalasi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ilm-fan taraqqiy qilayotgan Respublikamizda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Professional ta'lim tizimini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish, mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida qabul qilingan hujjatlarga asosan tub islohotlar amalga oshirilmoqda.[3]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 29-martda "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-sonli qarori ham shu islohotlarning biri hisoblanadi. Dual ta'lim tashkil etiladigan professional ta'lim muassasalarida korxonadagi ishlab chiqarish sharoitlari bilan ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarini o'zaro bog'lash, o'quvchilarni mehnat faoliyati ishtirokchilariga aylantirish orqali ta'limning ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini korxona va tashkilotlarda hamda nazariy qismini ta'lim muassasalarida tashkil etish nazarda tutilgan. Hozirgi davrda o'qitishning dual shakli nazariy va ishlab chiqarish, amaliy mashg'ulotlar bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan dunyodagi professional va texnik kadrlar tayyorlashning eng samarali shakllaridan biridir. Bu o'quvchilarning kasbiy ta'limida korxonalarning bevosita ishtirokini o'z ichiga oladi. Korxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun sharoitlar yaratilgan va o'quvchilar uchun har oylik to'lovlarni hisobga olgan holda barcha xarajatlar qoplanadi. Ta'lim muassasalari korxonalar bilan teng asosda hamkorlik qiladi.[4]

Dual ta'lim – bu mutaxassislarni o'quvchilarning ta'lim infratuzilmasini va o'quv jarayonida ish beruvchiga jalb qilgan holda, o'zaro ta'lim doirasidagi mutaxassislar tayyorlash uchun asosdir.[2]

Dual ta'lim – bu ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib boruvchi tizimdir.

Ta'lim muassasalari kadrlarga ehtiyoji bo'lgan tashkilotlar bilan shartnoma tuzadi. Shartnoma tashkilot va o'quvchi o'rtasida ham tuziladi. Bunda o'quvchi uchun tashkilotda muayyan ish o'rni ajratiladi. O'quvchilar bir haftada kamida ikki kun ta'lim oladi qolgan kunlar ishlaydi. O'quvchiga ishlagan kunlari uchun haq to'lanadi.

Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 17-moddasida dual ta'lim to'g'risida fikr yuritilib, "Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. O'qitishning dual tizimi hozirgi davr tadqiqotchilari tomonidan nazariy qism bevosita ta'lim muassasalari tomonidan, amaliy qism esa tashkilot (korxona) maydonlarida – bo'lajak mehnat faoliyat joylarida amalga oshiriladigan o'qitish

Date: 13thJanuary-2025

sifatida tushuniladi. Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarni tayyorlashga ijtimoiy buyurtmani rasmiylashtiradi, tashkiloti esa o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda, ta’lim faoliyatini tashkil etish mazmuni va shakllarini tuzatib chiqishda, metodik majmuani ta’minalashda ishtirok etish uchun ustozlarni belgilaydi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dual ta’lim-korxona (muassasa), talaba hamda davlatning manfaatlari va talablariga javob berishi juda ham muhim.[5]

Professional ta’lim muassasalarining bo‘lajak bitiruvchilarini o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha muvaffaqiyatli ish bilan ta’minalash masalasi qiziqtiradi. Shuning uchun davlat butun iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasini samarali hal qilib kelmoqda. Yuqori va zamonaviy darajaga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashda dual ta’lim tizimining elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki aynan shunday mashg’ulotlar talabaga motivatsiya beradi, o‘z bilimlarini ko‘rsatish, ijodiy rivojlanish imkoniyatlarini beradi, shu bilan birga mustaqil fikrash, o‘z faoliyatini rejalashtirish, korxonadagi amaliyot davrida o‘z ish o‘rniga ega bo‘lish, kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va kutilgan natijalarga erishishni o‘rgatadi.Binobarin, professional ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda Germaniya tajribasi asosidagi dual ta’lim muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PF-5812-sonli Farmoni 2019 yil 6 sentyabr.
- 2.Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralar to‘g’risida» 287-son qarori.
- 3.Аргунова, М.Б. Ключевые образовательные компетенции / М.Б. Аргунова // Химия в школе. – 2009. - № 6. - С. 21.
- 4.Nosirov B.G’. Masofaviy ta’lim sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini takomillashtirish tuzilmasi. nnovations in Technology and Science Education .2023 y. 146-152 b.
- 5.Nosirov B.G’. “O‘zbekistonda pedagoglar malaka oshirish tizimi tarixi va taraqqiyoti”, “News of the NUUz” jurnali, 02.10.2024 y. 168-170-b.